



Jaynarov Nodir Fozilovich

O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrası o'qituvchisi



YOSHLARDA SPORT ORQALI VATANPARVARLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda sport orqali vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirish masalasi bayon etilgan. Shuningdek, vatan tinchligi, ozodligi yo'lida o'z hayotlarini qurbon qilgan ko'plab fidoiylarning mard va jasurligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, vatanparvarlik, To'maris, Shiroq, Spitamen.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос патриотического воспитания молодежи через спорт. В нем также рассказывается о мужестве и отваге многих преданных, которые пожертвовали своими жизнями за мир и свободу своей родины.

Ключевые слова: гармонично развитое поколение, патриотизм, Томарис, Ширак, Спитамен.

Annotation. The article deals with the issue of patriotic education of youth through sports. It also recounts the courage and courage of the many devotees who sacrificed their lives for the peace and freedom of their homeland.

Key words: harmoniously developed generation, patriotism, Tomaris, Shirak, Spitamen.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, - degan g'oya asosida keng ko'lamli islohatlarni amalga oshiramiz. Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz” deb alohida ta'kidladi.[1]

Bu bejiz emas chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol avlodgina kelajagi buyuk bo'lgan O'zbekistonday jannatmakon yurtga xizmat qila oladi. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda sportning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Tariximizga nazar solar ekanmiz, xalq baxt-saodati, tinchligi, ozodligi yo'lida o'z hayotlarini qurbon qilgan ko'plab fidoiylarning guvohi bo'lamiz. Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi singari xalqimizning mard va jasur farzandlari biz uchun, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak-namuna timsolidir. Bu jasoratlar zahirida ona Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'usi yotadi.

Masalan, miloddan avvalgi birinchi ming yillik va milod boshlarida qadim zaminimizda yashagan sak qabilasidan bo'lgan Shiroqning jasoratini yodga olaylik. Shiroq o'z qabilasi boshliqlarining huzuriga kelib qabilaga xujum qilgan Eron shohi Doro qo'shinlarini hiyla bilan halok etganligini aytadi. O'zining quloq-burnini kesib, Doro huzuriga yo'l oladi. Eron shohi oldiga kelib, qabiladoshlaridan jabr ko'rganini va buning alamiga Doro qo'shiniga yordam berajagini bildiradi.

Ularni suvsiz sahroga boshlab boradi. Shunda dushman: "bizni qayerga boshlab kelding, ablah?" - deganlarida, Shiroq "men yengdim, Doro qo'shinini bir o'zim yengdim!... endi istagan tomoningizga boravering! Mening go'rim shu yerda!", - deb oyog'i ostini ko'rsatadi. Halokat yoqasida qolgan bosqinchilar Shiroqni o'ldiradilar. Shiroq jonini qurbon qilib, o'z qabilasini dushman hujumidan xalos etadi.

Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida miloddan avvalgi IV-V asrlarda yashagan massagetlar yo'l boshchisi To'maris Eron shohi Kayxisravning qabila ahlini o'ziga qaram qilib olish niyatida ishlatgan hiylasini u yuborgan elchi so'zidan sezib, ularga "boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka almashtirmaymiz", - deydi. Davrada o'tiringlar: "Rost gap!, Vatandosh ayollarimizning gapi bunday bo'ladi", - deb To'marisning so'zini ma'qullaydilar.

Kayxisrav xiyla bilan To'marisning o'g'li va uning qo'shinini mast qilib, asir olganidan hamda ularning ko'pini o'ldirganidan xabar topgan To'maris Eron shohiga qarshi jang boshlab, g'alabaga erishadi. Kayxisrav halok bo'ladi. Shohning kallasini tanasidan judo qilib keltirganlarida, To'maris unga nafrat bilan qarab: "Ey Kayxisrav, umring bo'yi jang qilib odam qoniga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich", - deb uni qon to'ldirilgan meshga solib, meshni og'zini chilvir bilan mahkam bog'lab qo'yadi.

Xalqimizning botir o'g'lonlaridan yana biri – Spitamen Iskandar qo'shiniga qarshi xalq qo'zg'oloniga boshchilik qiladi. U Zarafshon daryosi bo'yidagi bir joyda pistirmadan chiqib, Iskandar qo'shiniga tashlanadi. Dushmanning atrofini qurshab olib, ikki ming nafardan ko'proq yunon aksarini qirib tashlaydi. Shunda Iskandar o'zi lashkarga bosh bo'lib, Sirdaryo sohillaridan Spitamen ustiga tashlanadi. Vahimaga

tushgan saklar o'z boshlariga kelayotgan ofatni bartaraf qilish uchun Spitamenni yo'q qilishga ahd qilishadilar, uni o'ldiradilar.

Spitamen ona Vatan, xalq erki uchun qayg'uradi. Uning ana shunday ma'naviy barkamol, yorqin jasoratli qiyofasi asrlar osha avlodlar qalbida yashaydi. Bunday voqealardan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Mazkur ma'lumotlardan ayonki tariximizda o'tgan buyuk ajdodlarimiz ko'rsatgan jasoratlar zamirida, shubhasiz vatanparvarlik g'oyasi yotadi.

Yoshlarni tariximizda o'tgan buyuk allomalarimiz, ulug' shaxslar bilan tanishtirishda, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, insoniyat ravnaqi uchun qilgan xizmatlarini, ularning avlodlar uchun qoldirgan merosini yorqin tushuntira bilishimiz va shu orqali yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishimiz kerak.

Bugungi asosiy vazifamiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida sportni keng targ'ib qilish, o'g'il-qizlarimizni sport turi bilan shug'ullanishlari uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Bugun sport bilan shug'ullanayotgan dilbandlarimiz kelajakda vatanimiz sharafiga munosib ximoya qila oladigan bo'lishi bilan birgalikda ular mamlakatimiz bayrog'ini Osiyo, Jahon hamda Olimpiada musobaqalarida balandroq ko'tarishlari milliy g'ururimizni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarda sport orqali vatanparvarlik tushunchalarini takomillashtirish uchun masalaning quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratish lozim:

- Yoshlar o'rtasida sport turlarini keng targ'ib qilish;
- Sportga oid o'quv uslubiy qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar va tarqatma materiallar tayyorlanib ularni joylarga yetkazib berilishini ta'minlash;
- Respublika, Osiyo va jahon chempionlari hamda olimpiada chempionlari bilan uchrashuvlarni tashkil etish;

Xulosa - yoshlar o'rtasida sport turlari bo'yicha turli tanlovlarni o'tkazish kabi tadbirlar o'quvchi yoshlarda sport orqali vatanparvarlik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. 2020. 29 Oliy Majlisga Murojaatnomasi [1].
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqoro nufuzini yanada oshirishchora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-sonli qarori [2].
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 5-jild [3].
4. J.Eshnazarov "Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish". T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2012-y [4].